# Astronomiya institutida sayyor yig’ilish

O’zbekiston Fanlar akademiyasining fizika-matematika va texnika fanlari yo’nalishi bo’limining Astronomiya institutida sayyor yig’ilishi bo’lib o’tdi.



Unda FA vitse-prezidenti S.Mirzayev, fizika-matematika va texnika fanlari yo’nalishi bo’limi rahbari, akademik S.Baxramov va bo’lim kotibi M.Gafurova Astronomiya instituti faoliyati va ilmiy yutuqlari bilan tanishdilar. Yig’ilishda Institut oldida turgan vazifalar va muammolar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5032 qarorida belgilangan vazifalarning bajarilish holati atroflicha muhokama qilindi.